

Xitoy tili sonlarining grammatik xususiyatlari

Elnora Rustam qizi Nabiyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy tili sonlarining grammatik xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xitoy tili, son, grammatika

Grammatical features of Chinese numerals

Elnora Rustam kizi Nabiyeva

Abstract: This article provides information on the grammatical features of Chinese numbers.

Keywords: Chinese language, number, grammar

Xitoy tilida sonlar ma’no va grammatik jihatdan dastlab 2 guruhga bo‘linadi: miqdor va tartib sonlarga bo‘linadi.

1) Miqdor sonlar narsa-buyumning miqdorini yoki mavhum son ma’nosini bildiradi: 五 wu besh, 十五 shiwu o‘n besh, 五十 wu shi ellik, 一个人 bitta inson, 六个月 olti oy, 二十年 yigirma yil.

2) Tartib sonlar narsa-buyumning sanog‘dagi tartibini bildiradi. Tartib sonda sanoq sondan oldin prefiks “第” iyeroglifi qo‘yilishi orqali hosil bo‘ladi. Bunda mazkur prefiks raqam oldidan qo‘yiladi. Masalan: 第二 ikkinchi, 第五 beshinch, 第十 o‘ninch.

Sonlar haqida gapiradigan bo‘lsak, ayrim asosiy qismlarni ko‘rib chiqamiz:

Bular xitoy tili sonlarining nomlari: 一 (yi) bir, 二 (er) ikki, 三 (san) uch, 四 (si) to‘rt, 五(wu) besh, 六(liu) olti, 七(qi) yeti, 八(ba) sakkiz, 九(jiu) to‘qqiz, 十(shi) o‘n.

Hozirgi kunda xitoy tili sonlarining ko‘rinishi asosan iyerogliflardan tashkil topgan. Hamda sonlar arab sonlaridan ham foydalanishadi.

Sonlarning grammatik xususiyati.

Xitoy tilida sonlar kelishiklarga o‘zgarmaydi. Xitoy tili sonlarda turlanish mavjud emas. Xitoy tilida sonlardan keyin qo‘llaniladigan hisob so‘zlar sonlarning

miqdorini bildiradi. Birinchi marta sonlarning qo'llanilishi — bir, 二 ikki, 三 uch tarzida namoyon bo'ladi, ammo sonlarning miqdori bilan shunday aytildi: 一本书 bitta kitob, 两本书 ikkita kitob, 三本书 uchta kitob ma'nolarida keladi. Tartib sonlar hisob so'zlar qaysi ot so'z turkumi bilan ishlatalishiga bog'liq.

Chama son narsa-buyumlarning taxminiy sonini bildiradi. Chama sonlar quyidagicha yasaladi:

1) Ikki sanoq sonning ketma-ket kelishi bilan;

Masalan:

1) A: 你们打算在上海玩儿几天 ? (Siz Shanhayda necha kun aylanmoqchisiz?)

B: 大概两三天吧。 (taxminan ikki kun)

2) 十四五号我们一起坐飞机回北京。 (o'n to'rt o'n beshchi kunlari biz birga samalyotda Pekinga qaytamiz.)

2) Sanoq sondan so'ng “多”, “左右” qo'shilishi bilan ifodalaniladi.

1) A : 他今年多大 ? (U bu yil nechi yoshga to'ladi?)

B: 二十多岁。 (yigirma yoshdan oshiq)

2) A : 咱们什么时候放寒假 ? (Biz qachon qishki ta'tilga chiqamiz?)

B: 还有两个多月呢。 (hali ikki oydan ko'proq vaqt borku.)

3) 我们现在放寒假, 二十九号开学。 (biz hozir qishki ta'tildamiz, yigirma to'qqizinch sanadan o'qish boshlanadi.)

4) 他们四点左右回来。 (ular soat to'rtlar orasida qaytishadi.)

Hozirgi xitoy tilida ikki sonini ifodalash uchun yozuv belgisi 二 (er) va 两 (liang) qo'llaniladi. Mazkur ikkita sonni qo'llashga doir bir nechta qoidalar mavjud. Hisob so'zlar bilan birga doimo 两 soni, o'lchov birliklarini ifodalovchi so'zlar bilan esa ikkita sondan biri qo'llanishi mumkin. O'n birliklarini ifodalovchi sonlar bilan doimo faqat 二, yuz, ming, o'n ming va yuz million sonlar tarkibi o'rtasida 二 soni, ming, o'n ming va yuz million sonlarining boshida doimo 两, tartib sonlar, kasrlarda 二 qo'llanadi.

Hamda predmetning sonini bildiradi: — (yi) bir, 二 (er) ikki, 三 (san) uch, 两个人 (liang ge ren) ikkita inson.

— ikki soni yuzlik sonlarigacha bo‘lgan sonlarda qo‘llanilladi. Masalan ; 二十二 (er shi er) yigirma ikki, 十二个人 (shi er ge ren) o‘n ikkita inson shunday tarizda — (er) ikki soni qo‘llaniladi.

Son turlarga bo‘linib ularning nomlari: 百 (bai) yuz, 千 (qian) ming, 万 (wan) o‘n ming, shuningdek, ayrim sonlar otlar bilan keladi, sonlarning o‘lchov birliklarini anglatadi (年 nian yil, 毛 mao tanga), — (er) ikki va 两 (liang) ikki singari qo‘llaniladi.

Shunday holatlar bo‘ladiki, xitoy tili sonlari ikki marta qo‘llanilish jarayonida ayrim holarda ishlatalishi mumkin. Ya’ni avval, 两 (liang) ikki so‘ngra — (er) ikki soni qo‘llaniladi. Masalan; 两千二百零五 (liang qian er bai ling wu) ikki ming ikki yuz besh, 两万二千二百 (liang wan er qian er bai) yigirma ikki ming ikki yuz sonlari kabidir.

Hozirgi xitoy tilida sonlarning to‘rt darajasi mavjud: 亿 (yuz million) darajasi o‘z ichiga yuz milliard, o‘n milliard, bir milliard va yuz millionni oladi; 万 (o‘n ming) darajasi o‘z ichiga o‘n million, million, yuz ming va o‘n minggni oladi; 百 darajasiga yuz sonlari kiradi; ↑ darajasi ming, yuz, o‘n va bir birliklaridan iborat bo‘ladi. Agar sonlar tarkibida nollar mavjud bo‘lsa, ular nechta darajani egallamasin, faqat bir marta o‘qiladi. Masalan: 1800000021 – 十八亿零二十一, 30003 – 三万零三, 60500099 – 六千零五十万零九十九.

Agar nol soni gap oxirida qo‘llanilsa u o‘qilmaydi. Masalan: 360 – 三百六 (十), 5700 – 五万七千, 204000000 – 两亿零四百万.

Hozirgi xitoy tilida kasr sonining oddiy formulasi 几分之几 tarzida ifodalanadi. Bunda formula boshida raqam sur’ati, oxirida esa maxraji ifodalanadi. Agar kasr soni ichiga butun raqam kiritilgan bo‘lsa, unda u kasr sonidan 又 belgisi bilan ajratiladi va 几又几分之几 formula tarzida ifodalanadi. Masalan: $\frac{2}{3}$ – 三分之二, $\frac{3}{7}$ – 七分之三。

Agar maxraj vazifasini 100 raqami bajarsa, unda bu raqam foizni ifodalovchi son bo‘lib hisoblanadi va 百分之几 tarzida ifodalanadi. Masalan: 45 % - 百分之四五, 201%- 百分之二百零一。

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A.A. “Xitoy tilida hisob so‘zlar (leksik-semantik, struktural va funktsional tahlil”, Toshkent, 2004yil, 54-b;
2. Nasirova S. “ Xitoy tili grammatikasi” Toshkent, 2011 yil, 35-b;
3. Курдюмов В.А. “Курс китайского языка”, “Теоритическая грамматика” - Москва. 2006 г., с. 576;
4. 李琰.乌兹别克斯坦语言地位规划研究.新疆社会科学,2014(03).